UDK: 94(57).7.02 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss1/a201**

AMIR TEMUR FAOLIYATINING YOSHLARNI MA'NAVIY KAMOL TOPTIRISHDAGI ROLI

РОЛЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АМИРА ТЕМУРА В ДУХОВНОМ РАЗВИТИИ МОЛОДЕЖИ

THE ROLE OF AMIR TEMUR'S ACTIVITIES IN SPIRITUAL DEVELOPMENT OF YOUTH

Mamadov Nasimbek Shuxratjon o'g'li[1]

[1]Mamadov Nasimbek Shuxratjon o'g'li – O'zbekiston Miliiy universiteti tadqiqotchisi. (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Markaziy apparati bo'lim boshlig'i)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Amir Temur hukmronligi davrida davlat boshqaruvi va qo'shin tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Qolaversa, Amir Temur faoliyati davomida amalga oshirgan ilmiy merosning bugungi kundagi ahamiyati va uning yoshlar ongu-tafakkurini shakillantirishdagi ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek maqolada, Yangi O'zbekiston taraqqiyotida Amir Temur faoliyati va uning merosini yoshlar qalbiga singdish uchun olib borilayotgan islohotlar mazmuni tahlil etilgan.

Аннотация

В данной статье государственное управление в период правления Амира Темура и сведения о структуре армии. Кроме того, подчеркивается значимость научного наследия, которое Амир Темур осуществил за свою деятельность, и его значение в формировании сознания молодежи. Также в статье анализируется деятельность Амира Темура в развитии Нового Узбекистана и содержание реформ, проведенных по внедрению его наследия в сердца молодежи.

Abstract

In this article, state administration during the reign of Amir Temur and information about the structure of the army. In addition, the significance of the scientific legacy that Amir Temur carried out during his career and its importance in shaping the consciousness of young people is highlighted. Also in the article, Amir Temur's activity in the development of New Uzbekistan and the contents of the reforms carried out to inculcate his legacy in the hearts of the youth are analyzed.

Kalit so'zlar: *Amir Temur davlati, kengash, mashvaratu maslahat, tuzuklar, amirlar, sayyidlar, mashoyiqlar, raiyat, qo'shin, dargoh(saroy), devon(vazirlik), savquljaysh, ta'biyatuljaysh.*

Ключевые слова: *государство Амира Темура, совет, совещательный совет, тузуки, эмиры, сайиды, машоихи, райят, войско, дарғях (дворец), деван (министерство), савкуляйш, табиятулжайш.*

Key words: *Amir Temur's state, council, advisory council, tuzuks, emirs, sayyids, mashoyikhs, raiyat, army, dargah (palace), devan (ministry), savquljaysh, tabiyatuljaysh.*

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2018- yil 28- dekabrda parlamentga yo'llagan Murojaatnomasida «Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak» deb ta'kidlagandi. Bu bejiz aytilmadi, albatta. Chunki davlatimiz rahbari SH.Mirziyoyevning shaxsan o'zlari ham Amir Temur faoliyati bilan qiziqib, unga oid bo'lgan adabiyotlarni o'qir ekan. "Ozroq vaqtim bo'lsa kitob o'qiyman. Sohibqiron Amir Temurning To'xtamishxonning jangi haqida o'qib chiqdim. Amir Temur bu jangda yettita usulni qo'llagan ekan. Jasorati, o'z askarlarini mardonavor tarbiyalashi bilan birga, janglarni ham o'zi boshqargan. O'zim uchun ham bu yangilik bo'ldi. Keyin kimdir shu jang usulini o'rgangani bilan qiziqib ko'rdim. Hech kim o'rganmagan ekan. Eng avvalo bobolarimizning usullarini o'rganishimiz kerak"[1.], — dedi prezident va sohibqironning jangovar merosini chuqur o'rganish bo'yicha topshiriq berganini aytdi.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, xalqimiz, ayniqsa millatning kelajagi bo'lgan yoshlar buyuk ajdodlar tarixini qanchalar ko'p o'rgansa, ularning hayoti va faoliyatidan ibrat va saboq olib yashasa, qalbida milliy g'urur va iftixor tuyg'ulari jo'sh urib, el-u yurtga bo'lgan muhabbati yanada ortadi.

Xalqimiz tarixida o'tgan ko'plab buyuk siymolar qatorida, Sohibqiron Amir Temur qadriyatini o'rganish ham muhim ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy ahamiyatga ega.

Shu sababli, Amir Temur faoliyatining yoshlar ongi va tafakkurini shakllantirish biz olib borayotgan siyosatimiz uchun qanchalik muhim degan savol tug'iladi.

Birinchidan, Sohibqiron Amir Temur Movarounnahrdagi mo‘g‘ul bosqinchilarining 150 yillik hukmronligiga barham berib, o‘z zamonasining kuch-qudratda tengsiz markazlashgan saltanatiga asos solgan. Amir Temur o‘zining 35 yillik hukmronligi davrida Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar va Orol dengizidan Fors qo‘ltig‘iga qadar g‘oyat katta hududni o‘z ichiga olgan ulkan bir saltanatni vujudga keltirgan. Bundan tashqari, yana u Osiyoning janubiy-g‘arbiy tomonlari, Kichik Osiyo, Suriya, Misr va shimoliy-g‘arbda Quyi Volga, Don bo‘ylari, shimoliy-sharqda Balxash ko‘li va Ili daryosi bo‘ylari hamda janubiy-sharqda Shimoliy Hindistongacha bo‘lgan hududlarni o‘ziga bo‘ysundirishga muvaffaq bo‘lgani.

Ikkinchidan, Amir Temur buyuk davlat arbobi, siyosatchi, o‘tmish davlatchilik tajribalariga asoslanib o‘ziga xos davlat boshqaruviga asos solganligi. Sababi, Amir Temurning o‘tmish merosi o‘zbek davlatchiligining shakllanishi, uning boshqaruvi faoliyatining milliy ramziga aylanganligida namoyon bo‘ladi. Bugun O‘zbekiston Respublikasida davlat qurilishi va uning boshqaruv falsafasi aynan Amir Temurning boshqaruv qarashlari bilan uyg‘unlashganligida ko‘rinadi. Chunki, “Temur tuzuklari”ga muvofiq, Sohibqiron Temur “Davlat ishlarining 9 ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini angladim”,—deb ta’kidlagan. Darhaqiqat, U yuritgan saltanat ishlarida to‘rt narsaga amal qilgan, ya’ni:1) kengash; 2) mashvaratu maslahat; 3) qat’iy qaror; 4) ehtiyotkorlik.[2.] Aynan Amir Temurning davlat boshqaruvidagi o‘ziga xos xususiyatlar mamlakatimizda davlat boshqaruvini olib borish jarayoniga tadbiq etilgan degan xulosani beradi.

Uchinchidan, Amir Temur zamonasining mashhur sarkardasi va eng yirik lashkarboshi bo‘lgan. Uning harbiy iste’dodi, sarkardalik mahorati qo‘shinlarining tuzilishi, jang san’ati bugun O‘zbekiston yoshlarining faxriga aylanib bo‘ldi.

Bu nafaqat yosh avlod uchun g‘urur timsoli, balki, mamlakatimiz mudofaa sohasining milliy timsoliga ham aylanib bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Misol sifatida aytish kerakki, Amir Temurning Oltin O‘rda xoni To‘xtamish,

Dehli sultoni Mahmud va Turkiya sultoni Boyazidlar bilan olib borgan janglarida va shiddatli muhorabalar maydonida qo‘llagan «savquljaysh» (strategiya) va jang qilish uslublari «ta’biyatuljaysh» (taktikalari) [3.] mamlakatimiz harbiy strategiyasida foydalaniladi va bu harbiy xizmatchilarga faxr tuyg‘usini shakllantiradi.

To‘rtinchidan, Amir Temur ma’naviy salohiyatining kuchi-uning iqtisodiy, moliyaviy, xo‘jalik, siyosiy, harbiy, huquqiy, davlatlararo munosabatlar faoliyatida, fanga, madaniyatga, adabiyotga, san’atga, me’morchilikka munosabatida rang-barang mazmun va ko‘rinishlarda yaqqol namoyon bo‘ldi. Chunki, Sohibqiron o‘z hayotlari davomida ko‘plab shaharlar, masjid-u madrasalar, maqbaralar, xonaqohlar, qal’a-qasrlar, bog‘-rog‘lar, sug‘orish inshootlari, ravon yo‘llar, ko‘priklar barpo ettirdi. Bu O‘zbek xalqi uchun ma’naviy ozuqa va meros hisoblanadi.

Beshinchidan, Amir Temur ma’naviy salohiyatining markazida islomiy qadriyatlar turadi. Amir Temur ma’naviyatining islomiy asoslari Qur’oni karim, Hadisi sharif, shuningdek tavhid, tafsir, fiqh, tasavvuf ilmlari mazmunida, Ollohga, Rasulullohga, majoziy va hastiy pirlariga ixlosi, e’tiqodi negizida shakllandi, qaror topdi. U Naqshbandiya ta’limoti talablari asosida yanada mustahkamlandi, hayotiy mazmun oldi. Shuning uchun ham Amir Temur o‘zining butun ongli hayoti davomida islom diniga sidqidildan e’tiqod qildi, uning barcha farz va sunnat talablarini taqvodorlik bilan bajardi. Islom rahnomalariga, sayyidlar, shayxlar, xo‘jalarga samimiyat bilan munosabatda bo‘ldi. Amir Temur butun hayoti davomida islom dinini xurofot, bid’at, mutaassiblik, johillik, aqidaparastlik kabi illatlardan himoya qildi. Amir Temur Movarounnahr va Xurosonda yashab ijod qilgan tasavvuf ilmining yirik peshqadamlari xo‘ja Abduxoliq G‘ijduvoniy, Ahmad Yassaviy, Ali Hakim at-Termiziylarni o‘zining majoziy pirlari hisoblab, ular ruhiga hurmat bajo keltirdi. Shahrisabz, Termiz, Yassa shaharlarida xo‘ja Ali Hakim at-Termiziy, Sayyid Amir Kulol, xo‘ja Ahmad Yassaviy qabrlari ustiga maqbaralar qurdirdi. Amir Temurning islom ma’naviyatiga e’tiqodini, sodiqligini va undan qudratli kuch olganligini bildiruvchi bunday misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin. Agar xo‘ja Bahouddin Naqshband islom ta’limotini har qanday xurofiy illatlardan tozalab, isloh qilgan bo‘lsa, Amir Temur uni himoya va targ‘ib qildi, diniy mazhablarga bo‘linib, hududiy parchalanishlarga, o‘zaro to‘qnashuvlarga chek qo‘ydi. [4.] Chunki, Amir Temurning o‘zi bir qancha dunyoviy va ilohiy fanlarni mukammal bilgan. Shuning uchun ham ahli fozillarga, kalomul mulklarga ixlosi baland bo‘lgan, Amir Temur fan va madaniyat homiysi hisoblangan.[5.] Amir Temur

shaxsining bugungi kundagi nazariy va amaliy ahamiyati to‘g‘risida qanchalik asoslar keltirsakda aslida bu kam deb aytish mumkin. Chunki, har bir davrning qaxramonlari bo‘ladi va ularning amalga oshirgan amaliy ishlari, o‘sha davrning merosi bo‘lib oladi. Masalan, Fransuz olimi Lyangle ham Amir Temurning ilm ma’rifat allomalariga, sohibi hunarmandlarga qanchalik hurmat bilan munosabatda bo‘lganligi to‘g‘risida shunday deydi: «Temur olimlarga seriltifot edi. Bilimdonligi bilan bir qatorda sofdilligini ko‘rgan kishilarga ishonch bildirardi. U tarixchilar, faylasuflar, shuningdek, ilm-fan, idora va boshqa ishlarda iste’dodli bo‘lgan barcha kishilar bilan suhbatlashish uchun ko‘pincha taxtdan tushib, ularning yoniga kelardi. Negaki, Temur bu sohalarga g‘amxo‘rlik qilishga asosiy e’tiborini berardi».

«Temur tuzuklari»da yozilganidek: «Raiyat ahvolidan ogoh bo‘ldim. Ulug‘larini ota qatorida, kichiklarini farzand o‘rnida ko‘rdim. Har yerning tabiati, har el-yurt va shaharning rasmu odatlari va mizojidan voqif bo‘lib turdim. Har bir yurt va shahar aholisining ulug‘lari bilan do‘st tutindim. Ularning mizojlari va tabiatiga to‘g‘ri kelgan, o‘zlari tilagan odamlarini ularga hokim qilib tayinladim.»

Ma’lumki, saxovatpeshalik, mehr-muruvvatlilik, fuqaroning turmushi va hol ahvolidan xabardor bo‘lish faqat buyuk davlat arboblariga xos bo‘lgan fazilatdir. Amir Temur hazratlariga xos bo‘lgan ushbu fazilat bugungi kunda mamlakatimizda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan siyosatda o‘z aksini topmoqda.

Aynan shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev buyuk sarkarda Amir Temurning harbiy mahoratini yosh avlodga o‘rgatishga tashabbuskori bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 5- iyul 2017- yildagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, buyuk davlat arbobi va sarkarda Sohibqiron Amir Temurning Vatanga sadoqat, el-yurtni ardoqlash, mardlik, fidoyilik va adolatparvarlik kabi yuksak fazilatlari yosh avlod uchun o‘rnak bo‘lib xizmat qilishini inobatga olgan holda, respublikaning barcha harbiy akademik litseylariga “Temurbeklar maktabi” nomi berildi va ularda Amir Temur tuzuklari va harbiy mahoratini o‘rgatishga alohida e’tibor berilmoqda. Bugungi kunda Sohibqiron Amir Temurning davlat boshqaruvi va qo‘shin tuzilishi borasidagi faoliyatidan saboq chiqarish yurt taraqqiyoti va uning xavfsizligini ta’minlash tinchlik va osoyishtalik omili bo‘lib qolaveradi.

Xulosa qilib aytganda, Sohibqiron Amir Temur hazratlari milliy davlatchiligimiz tarixida nafaqat yetti iqlim sultoni sifatida, balki yurt obodonchiligi va xalq farovonligi yo‘lida bor kuch-g‘ayratini safarbar etgan buyuk davlat arbobi sifatida qoladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 21- aprelda Qashqadaryo viloyati Ko‘kdala tumaniga tashrifi chog‘ida o‘tkazilgan faollari bilan uchrashuvdagi nutqidan.// https://daryo.uz/k/2022/04/21/ozim-uchun-ham-bu-yangilik-boldi-shavkat-mirziyoyev-amir-temur-mudofaa-merosi-haqida-gapirdi/

2. Temur tuzuklari [fors tilidan Alixon Sog‘uniy va Habibullo Karomatov tarjimasi]. - Toshkent, 1991.

3. http://buxoromoi.uz/index.php/kafedralar/ijtimoiy-iqtisodiy-fanlar/72-buyuk-so-ib-iron-amir-temur-ukmronligi-davrida-davlat-bosh-aruvi-va-shin-tuzilishi

4. Amir Temurning milliy davlatchilik siyosati: tarix va hozirgi zamon” mavzuidagi Amir Temur tavalludining 670 yilligiga bag‘ishlangan ilmiy konferensiya materiallari.// T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti. - 2006. – B. 18.

5. O‘zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to‘g‘risida»gi Qarori//«O‘zbekiston ovozi». 1995- yil 1- yanvar soni.